

NEMIS TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZM ATAMASIGA OID  
NAZARIY QARASHLAR

Abduraxmonov Alisher Abdurasul o'g'li,  
TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti,  
O'qitish nazaryasi va metodikasi kafedrasida  
o'qituvchisi

[alisher.abduraxmonov96@gmail.com](mailto:alisher.abduraxmonov96@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14205664>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola tilshunoslikning frazeologiya bo'limi kelib chiqishi, tilshunoslikda tutgan o'rni xaqida gap boradi. Shuningdek maqolada bir nechta nemis tilida uchraydigan frazeologizmlarning taxliliga xam to'xtalib o'tilgan

**Kalit so'zlar:** frazeologiya, tilshunoslik, frazeologizm, erkin so'z birikmasi turg'un so'z birikmasi, lug'aviy birlik

**Abstract.** This article is about the origin of the phraseological department of linguistics, its place in linguistics. The article also focuses on the analysis of several phraseological units found in the German language

**Key words:** phraseology, linguistics, phraseology, free phrase, fixed phrase, lexical unit

Tilshunoslikning iboralarni, ya'ni turg'un birikmalar (maqol, matal) so'zlarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deb ataladi. Frazeologiya yunoncha "phrasis"-ifoda, ibora, "logos"- talimot so'zidan olingan bo'lib, ya'ni iboralarni o'rganadigan tilshunosliksohasi hisoblanadi. Frazeologiya bu fan sohasi bo'lib, uning mahzuli esa frazeologizmlar xisoblanadi.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrda paydo bo'ldi. Shu vaqtga qadar frazeologiya tilshunoslikning leksikologiya sohasi ichiga qo'shib o'rganilgan. Frazeologiya atamasini birinchi bo'lib Sh. Bally (1895-1969) o'zining 1909 yilda "Traitede stylistique francaise" asarida qo'llagan. [1]

Frazeologiya tilshunosliknin yangi sohasi bo'lib mustaqil lingvistik fan sifatida 1970-yillarning boshidan boshlab, ayniqsa, Yevropa tilshunosligiga qiziqish ortib bordi. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat etibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarni o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lgan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarni aniqlashdir. Tadqiqotchilar frazeologiyani ikki xil ya'ni tor va keng ma'noda tushinadilar. Keng manoda tushinilganda, frazeologiya doirasiga maqol, matal,

folklarga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish) ham kiritiladi.[2]

Frazeologizmlar - ma'nosi ona tili bo'lmaganlar uchun to'liq tushunarsiz bo'lgan iboralardir. Frazeologizmlar bizning kundalik hayotimizning bir qismidir.

Frazeologizmlar juda mashhur til vositasidir. Ularning yordami bilan siz his-tuyg'ularni va istehzoni yaxshi ifodalashingiz mumkin. Insoniylik madaniyati frazeologizmlarda namoyon bo'ladi. Odamlarni muloqotni rang-barang va qiziqarli qilishga undash. Ular muloqotni qiziqarli qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ifoda vositalaridan biridir.

Frazeologizm atamasi "sintaktik birlikni ifodalovchi barcha turg'un so'z turkumlari uchun umumiy atama" deb ta'riflanadi. Harald Burger fikricha, frazeologizmlarga xos xususiyatlardan biri, eng avvalo, ko'p qismlilik (yoki polileksiklik) – frazeologizm kamida ikkita a'zodan iborat bo'lishi kerak, ular birgalikda ma'lum bir birlikni tashkil qiladi. [3]

Volfgang Fleysler esa frazeologizm kamida ikkita so'z birikmasidan iborat bo'lib, ulardan kamida bittasi avtosemantik bo'lishini ta'kidlaydi.[4]

Frazeologiya hozirgi kunda fan sifatida tilshunoslikning grammatika, leksikologiya, fonetika va fonologiya bo'limlari kabi o'z tekshirish metodiga va o'rganish obyektiga ega bo'lgan alohida sohaga aylandi. Frazeologizmlar lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gaplar tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi – bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida qo'llaniladi. Turg'un birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi tarkibiy qismlarining turg'unligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir.

Tilda so'z birikmalari ikki xil bo'ladi:

- erkin so'z birikmasi
- turg'un (ibora) so'z birikmasi

Nutqda ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro mano va grammatik jihatdan bog'lanishdan tuzilgan birikmalar qo'llaniladi. Bunday birikmalarning ayrimlari nutq jarayonida tuziladi. Nutq jarayonida tuzilgan birikma kamida ikkita mustaqil so'zdan tashkil topadi va murakkab tushunchani ifodalaydi. Bunday so'z birikmasi erkin so'z birikmasi hisoblanadi.

Tilda ko'p vaqt bir qolipda qo'llanaverib, bo'linmaydigan holga kelib qolgan birikmalar mavjud. Bular turg'un birikmalardir:

1. Tasviriy ifodalar.

2. Iboralar (frazelogizmlar).
3. Maqol va ma'tallar.
4. Hikmatli so'zlar (aforizmlar)

Iboralar tilshunoslikda frazeologizmlar atamasi bilan yuritiladi. Frazelogizm atamasi ko'plab sinonimlarga ega: "turg'un birikma", "frazelogik ibora" va "idioma".

Frazelogizm so'z kabi lug'aviy birlik xisoblanadi. Ular xam so'zlar kabi tilda tayyor xolda mavjud bo'lganligi sababli nutq xodisasi emas, balki eng avvalo til xodisasi. So'z leksik manoga ega bo'lgani kabi frazeologizm ham o'zining frazeologik manosiga ega. So'zdagi barcha paradigmatic, sintagmatic xususiyatlarni frazeologizmlarda xam yakkol ko'rish mumkin. Shu bilan birga frazeologizmlar so'z va erkin so'z birikmasidan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi. Frazelogiyani tashkil etuvchi komponentlar mano butunligiga ega emas, ular faqatgina shakl va tovush tomoni bilan so'zga o'xshaydi. Ularni tashkil qiluvchi komponentlarning frazeologik manosi turg'un, ko'proq emotsional-ekspressiv jilovga ega bo'lgan belgi, xarakter kabilarni ifodalaydi.[4] Frazelogizmlarning so'z birikmalaridan turlicha farqlari bor: Frazelogizmlar va so'z birikmalari turli uzunliklarga ega bo'lishi mumkin: eng qisqa ifoda, masalan: "*Guten Tag*" (hayrli kun) faqat ikkita so'zdan iborat, eng uzun iboraga esa "*wer einmal lügt, dem glaubt man nicht, und wenn er auch die Wahrheit spricht*" (bir marta aldagan odamga hech qachon ishonmaydilar) misol bo'lishi mumkin.

Frazelogizmlar va so'z birikmalari turli xil sintaktik funktsiyaga va ichki tuzilishga ega: "*Gelegenheit macht Diebe*" (Imkoniyat o'g'ri qiladi yoki imkon bo'lsa o'g'ri ham topiladi) butun bir jumla, "*das Rote Kreuz*" (Qizil xoch) faqat ot so'z birikmasi, "*hin und her*" (u yoqdan bu yoqqa) qo'shimchasi. "*Öl ins Feuer gießen*" (olovga moy quyish) so'zida qaratqich kelishigi (Öl) va yo'naltirilganlikni (ins Feuer) bildiradi. Frazelogizmlar va so'z birikmalari morfosintaktik funktsiyaga ega, ya'ni "*er rauft sich die Haare*" (o'z sochini yulmoq) fe'lini konjugatsiya qilish yoki turli holatlarda "*das Rote Kreuz/ dem Roten Kreuz*" nominal ifodasini ishlatish mumkin. Boshqalarni bu borada o'zgartirish mumkin emas, masalan. "*Was ich nicht weiß, macht mich nicht heiß*" (bilmagan narsaga ko'ngilni bezovta qilmaslik). To'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'nosi: "*sich die Zähne putzen*" (tishini yuvmoq) iborasining to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'nosi bir, ammo "*Öl ins Feuer gießen*" (o'tga yoqilg'i quymoq)" idiomasi boshqacha. Bu yerda iboraning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini (kimdir chinakam yog'ni olovga yog'diryapti) yoki ko'chma ma'nosini,

tortishuvga qo'shimcha yoki hayajonni oshirayotganida muhim ahamiyatga ega. Agar butun iboraning frazeologik ma'nosi bilan to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi o'rtasida nomuvofiqlik shuningdek ziddiyat bo'lsa, u holda ibora semantik ma'noda idiomatik bo'ladi, masalan, "*jmdm. einen Korb geben*" (kimnidir rat etmoq). Semantik idiomatiklik frazeologizmlarning bosqichma-bosqich xossasidir. Ikki ma'no o'rtasidagi tafovut qancha ko'p bo'lsa, frazeologizm shunchalik idiomatik bo'ladi. Idiomatiklikning boshqa darajalari - qisman idiomatik va noidiomatik. Idiomatik frazeologizmlardan tashqari qisman idiomatik va noidiomatik frazeologizmlar ham mavjud. *einen Streit vom Zaun brechen* frazeologizmi "*vom Zaun*" komponenti nuqtai nazaridan idiomatik, "*einen Streit*" esa erkin ma'nosini saqlab qoladi. Bunday semantik tuzilishga ega frazeologizmlar yarim idiomatik frazeologizmlarga mansub. Idiomatik bo'lmagan frazeologizmlar frazeologik va to'g'ridan-to'g'ri ma'no o'rtasida semantik farqlar yo'q (yoki faqat minimal) bilan tavsiflangan iboralardir, masalan, "*sich die Zähne putzen*". [5]

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rish mumkinki frazeologizmlar har xil shakllarda bo'lishi mumkin: faqat ikki so'zdan iborat so'z birikmasi ham va ancha uzun jumla ham frazeologizmlarga tasniflanishi mumkin. Frazeologizmlar turli xil sintaktik funktsiyalarni bajarishi mumkin: ular gapda so'z birikmasi sifatida paydo bo'lishi, ob'ektni ifodalashi yoki murakkab gapni tashkil qilishi mumkin. Ba'zilari morfo-sintaktik xususiyatga ega, boshqalari esa o'zgarmasdir. Shunga qaramay, barcha frazeologizmlarda ma'lum umumiylik yoki xususiyatlarni topish mumkin. Ayrim frazeologizmlar ma'lum bir qolipga ko'ra hosil bo'ladi: ba'zilarida olmosh, qo'shma tuzilish, hatto alliteratsiya bo'ladi, boshqalarida esa bunday qolip yo'q.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Балли Ш. Французская стилистик. –Москва: Высшая школа, 1961 стр 100
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologiya>
3. Harald Burger (1998). Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. -Berlin: Erich Schmidt. S 27-30
4. Fleischer Wolfgang. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. 2.durchges. und erg. Aufl. Tübingen, Max Niemeyer Verlag, 1997 S 238
5. Umorxo'jaev M. E. Leksikologiya leksikografiya, frazeologiya, frazeografiya. –Andijon, 2010. B 100
6. Harald Burger (1998). Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. -Berlin: Erich Schmidt. S 31-32